

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**2011-2012-O‘QUV YILIDA UMUMIY
O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARINING
4-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN
ONA TILI, MATEMATIKA, JISMONIY
TARBIYA FANLARIDAN BOSQICHLI
IMTIHON MATERIALLARI
VA METODIK TAVSIYALAR TO‘PLAMI**

**G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2012**

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika Ta'lim markazi qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar tomonidan muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Maktab metodbirlashmalari imtihon materiallariga 15–20% hajmda o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

TUZUVCHILAR:

ONA TILI VA MATEMATIKA

N. Ahmedova – RTM boshlang'ich ta'lim bo'limi boshlig'i;

Sh.Yo'ldosheva – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti;

L.O'rinboeva – Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi;

R.Anorbayeva – Angren shahar 43-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

JISMONIY TARBIYA

F.Nadjimov – Respublika ta'lim markazi bosh metodisti.

TAQRIZCHILAR:

G.Mamatova – Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi;

I.Mirzaxalilova – RTM boshlang'ich ta'lim bo'limi bosh metodisti;

U.To'layeva – Parkent tumani 5-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Nashr uchun mas'ul

M.Abralova

Imtihon materiallarini ko'paytirib tarqatish ta'qiqlanadi.

ONA TILI

2011-2012 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablari 4-sinf o'quvchilari bosqichli nazoratda ona tili fanidan grammatik topshiriqli diktant yozadilar.

Nazorat materiallari variantlar ko'rinishida oldindan ko'paytirilib, 6 ta konvertga solinadi va maktab direktoriga 15-aprelgacha topshiriladi.

Bosqichli nazoratni o'tkazish tartibi:

Bosqichli nazoratda 4-sinf o'quvchilariga diktant variantlari solingan, maktab direktori tomonidan tasdiqlangan 6 ta konvert tavsiya etiladi. O'quvchilardan biri 6 ta konvertdan bittasini tanlaydi va ochadi. O'qituvchi konvert ichidagi diktant sarlavhasini va matnini o'qib eshittiradi. Doskaga sana va diktant sarlavhasi yoziladi.

O'qituvchi matnini yozdirishga kirishishdan avval o'quvchilarga diktant yozish qoidalarini eslatadi. Matnini husnixat qoidalariga rioya qilgan holda, har bir so'zni ichida bo'ginlab aytib, diqqat bilan yozish kerakligi aytiladi. So'ngra o'qituvchi matnini adabiy va orfoepik talaffuz me'yorlarida, tinish belgilariga rioya qilgan holda o'qib beradi. Matndagi ba'zi imlosi qiyin va o'rganilmagan qoidalar asosida yoziladigan so'zlar doskaga yozilib ko'rsatiladi.

Diktant yozish jarayonidan oldin har bir gap butun holda o'qib beriladi. O'quvchilar gap chegarasini aniqlab oladilar. So'ngra gap so'z birikmalariga ajratilgan holda aytib turib yozdiriladi.

Diktant yozib bo'lingach, o'qituvchi matnini takror o'qib eshittiradi. O'quvchilar yozgan matnlarini tekshirib oladilar. O'quvchilar yozganlarini yana bir marta ichida o'qib tekshiradilar. Shundan so'ng grammatik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajaradilar.

Grammatik topshiriqlar quyidagi yo'nalishlarda bo'ladi:

1. Fonetik tahlil.
2. So'z tarkibiga ko'ra tahlil.
3. Morfologik tahlil.
4. Sintaktik tahlil.
5. Leksik tahlil.

Baholash mezonlari:

Grammatik topshiriqli bosqichli nazorat diktanti boshlang'ich ta'lim DTS va o'quv dasturi asosida quyidagi bilim, ko'nikma va malakalar reyting tizimi bo'yicha baholanadi.

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining to'g'ri ishlatilishi.
3. Xatboshilarga rioya qilinishi.
4. Fonetik tahlil.
5. So'z tarkibiga ko'ra tahlil.
6. So'z turkumiga ko'ra tahlil.
7. Gap bo'laklariga ko'ra tahlil
8. Leksik tahlil.
9. Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
10. Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

Har bir topshiriq 5 ball bilan baholanadi va umumiy ball BKMLar soniga bo'linadi, yaxlitlangan o'rtacha ball sinf jurnaliga qo'yiladi.

YOZ YOMG'IRI

Botirning otasi yoz bo'yi kapa tikib, dalada yashaydi. U dalada pomidor, kartoshka, piyoz kabi ekinlarni ekadi. Bir kuni osmonni qora bulut qopladi. Chars-churs chaqmoq chaqdi. Momaqaldiraq gumbirladi. Sharros yomg'ir quydi. Botir o'zini panaga oldi. Yomg'ir suvlari chumoli iniga sizib kira boshladi. Botir chumolilarga achindi. U yugirib kelib, inning atrofini loy bilan o'rab tashladi. Shu payt otasi kelib qoldi. U Botirning o'zini yomg'irdan panaga olmaganiga hayron bo'ldi. Keyin bilsa, o'g'li chumolilarni himoya qilayotgan ekan. (76 so'z)

Grammatik topshiriqlar:

1. «Bulut» so'zini fonetik tahlil qiling.
2. «Iniga» so'zini so'z tarkibiga ko'ra tahlil qiling.
3. 7-gapdagi «otasi», «o'zini» so'zlarini so'z turkumlariga ko'ra tahlil qiling.
4. 4-gapni gap bo'laklariga ko'ra tahlil qiling.
5. «Osmon» so'ziga yaqin ma'noli so'z toping.

FAVVORALAR

Favvoralar yozning issiq kunlarida o'zining muzdek suvi va toza havosi bilan insonlarga orom baxsh etadi.

Qadim zamonlarda ham saroylarda favvoralar bo'lgan. Samarqand atroflarida Amir Temur barpo etgan Dilkusho bog'ida favvora bo'lgan. Ispaniya elchisi bu favvoraga havas qilgan. U favvoradan qizil olmalar qalqib chiqqanligini o'z xatida tasvirlagan. Xalqimiz, ajdodlarimiz yaratgan mo'jizaviy san'at namunalari juda chiroyli ekanligini tarixchilar o'z asarlarida yozishgan. Musavvirlar esa rasmlarini chizishgan.

Toshkentda Alisher Navoiy, Xadra, Mustaqillik maydoni, Temuriylar tarixi davlat muzeyi atroflariga favvoralar qurildi. (77 so'z)

Grammatik topshiriqlar:

1. «Qurildi» so'zini fonetik tahlil qiling.

2. «Mustaqillik» soʻzini soʻz tarkibiga koʻra tahlil qiling.
3. 1-gapdagi «issiq», «kunlarida» soʻzlarini soʻz turkumlariga koʻra tahlil qiling.
4. 2-gapni gap boʻlaklariga koʻra tahlil qiling.
5. «Toza» soʻziga yaqin maʼnoli soʻzlar toping.

QUYOSH SEVGAN YURT

Quyosh moviy togʻlar ortidan bosh koʻtaribdi. Bogʻdagi rango-rang gullar unga salom berishibdi. Daraxtlar shoxida qushlar chuldirab sayrabdi. Yaproqlar quyoshni olqishlabdi. Butun olam uning saxiy nuridan bahramand boʻlibdi.

Koʻhna Turonzaminda insonlar qalbini yorituvchi quyoshlari bor. Bular, Amir Temur, Ibn Sino, al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Ulugʻbek, Navoiylar!

Bu yurt mustaqil yurt! Oʻziga xon, oʻziga bek yurt! Bu yurtning odamlari juda mehnatkash. Ular har yili umid bilan nihol ekishadi. Men ularni parvarishlayman. Qizil olmalarda oʻz aksimni koʻrganday boʻlaman. (78 soʻz)

Grammatik topshiriqlar:

1. «Quyosh» soʻzini fonetik tahlil qiling.
2. «Nuridan» soʻzini soʻz tarkibiga koʻra tahlil qiling.
3. 4-gapdagi «bogʻdagi», «olmalarda» soʻzlarini soʻz turkumiga koʻra tahlil qiling.
4. 11-gapni gap boʻlaklariga koʻra tahlil qiling.
5. «Yurt» soʻziga yaqin maʼnoli soʻz toping.

MEHNAT

Mehnat inson hayotini bezaydi. Uni elga tanitadi, ulugʻlaydi. Obroʻ- eʼtiborini oshiradi. Mehnat qilgan odamning vaqti bekor ketmaydi. Oʻquvchining asosiy mehnati oʻqishdir. Oʻqish uchun sabr-toqat, iroda kerak. Mehnatga yoshlikdan oʻrganish lozim. Darslarni qunt bilan tinglash va uy vazifalarini vaqtida bajarish zarur. Ulugʻ bobomiz Alisher Navoiy ham sabr-toqat bilan ilm oʻrgangan. U kishi mukammal bilim egasi, shoir va davlat arbobi boʻlib elga tanilgan. Shuning uchun hozirgi kunda bobomizni butun dunyo biladi. Qunt bilan qilingan mehnatning samarasi yaxshi boʻladi. (79 soʻz)

Grammatik topshiriqlar:

1. «Hayotini» soʻzini fonetik tahlil qiling.
2. «Yoshlikdan» soʻzini soʻz tarkibiga koʻra tahlil qiling.
3. 2-gapdagi «uni», «tanitadi» soʻzlarini soʻz turkumlariga koʻra tahlil qiling.
4. 1-gapning bosh boʻlaklarini aniqlang.
5. «Odamlar» soʻziga yaqin maʼnoli soʻz toping.

USTOZ KULOL

Rahim boboni usta kulol deb maqtashadi. Bobo yasagan koʻzalar, laganlar, tovoq va guldonlar shunday bejirim, chiroyliki, koʻrganlar havas qiladilar.

Sopol buyum qilish uchun avval maxsus tuproqdan loy obdon pishiriladi. So'ng unga shakl beriladi. Buning uchun maxsus asbob bo'ladi. Rahim bobo bu murakkab ishni juda tez va sifatli bajaradi.

Rahim boboning ko'p shogirdlari bor. U kulolchilik sirlarini shogirdlariga sidqidildan o'rgatmoqda. Tayyor mahsulotlarga gul solish ham bir san'at. Rahim bobo boshchiligida shogirdlari bilan tayyorlagan mahsulotlar xaridorlar tomonidan sevib xarid qilinadi. (80 so'z)

Grammatik topshiriqlar:

1. «Buyum» so'zini fonetik tahlil qiling.
2. «Guldonlar» so'zini so'z tarkibiga ko'ra tahlil qiling.
3. 8-gapdagi «shogirdlariga», «o'rgatmoqda» so'zlarini so'z turkumlariga ko'ra tahlil qiling.
4. 6-gapni gap bo'laklariga ko'ra tahlil qiling.
5. «Bajaradi» so'ziga yaqin ma'noli so'zlar toping.

TOSHBAQA

Toshbaqa juda yuvosh, sekin harakat qiluvchi jonivordir. Bahor kelishi bilan toshbaqalar inlaridan chiqib, ovqat izlay boshlaydi. U maysa, o'tlar bilan oziqlanadi. Onda-sonda hasharotlarni ham tutib yeydi.

Toshbaqani uy sharoitida boqish mumkin. U sabzi, karam, tarvuz, qovun, olma po'stlog'i va beda yeydi. Toshbaqa ochlikka chidamli bo'ladi. U yarim yil narsa yemay yashay oladi. Saratonning juda issiq kunlarida oz suv ichadi.

Toshbaqalar juda uzoq yashaydi. Uning ustidagi qattiq kosachasi xavf-xatardan saqlaydi. Biror sharpani eshitsa, darrov boshini kosa ichiga oladi. (80 so'z)

Grammatik topshiriqlar:

1. «Yuvosh» so'zini fonetik tahlil qiling.
2. «Hasharotlarni» so'zini so'z tarkibiga ko'ra tahlil qiling.
3. 2-gapdagi «o'tlar», «oziqlanadi» so'zlarini so'z turkumiga ko'ra tahlil qiling.
4. 7-gapni gap bo'laklariga ko'ra tahlil qiling.
5. «Maysa» so'ziga yaqin ma'noli so'z toping.

MATEMATIKA

4-sinfda matematikadan bosqichli nazorat imtihoni yozma ravishda o'tkaziladi. Nazorat materiallari variantlar ko'rinishida oldindan ko'paytirilib, 6 ta konvertga solinadi va maktab direktoriga 2012-yilning 15-apreligacha topshiriladi.

Bosqichli nazorat imtihoniga o'quvchilar bir nechta varaq (toza qog'oz), chizg'ich va ruchka (qalam) olib keladilar. O'qituvchi o'quvchilarni qator bo'yicha variantlarga ajratadi. So'ngra har bir qatordan bir o'quvchi chiqib stolga teskari qilib qo'yilgan variantlardan birini oladi. Shu qatordagi barcha o'quvchilarga ko'paytirilgan variantlar tarqatiladi. Variantlar tarqatilgandan so'ng o'qituvchi zaruriy tushunchalar beradi va vaqtni belgilab doskaga yozib qo'yadi. Yozma ishni o'tkazish uchun 45 daqiqa vaqt ajratiladi. Bu davrda o'quvchilar hisoblash ishlarini, tenglamalar yechish va boshqa topshiriqlarni yozma ravishda bajaradilar. Har bir topshiriq 5 ballik reyting tizimida baholanadi. Berilgan topshiriqlar bo'yicha to'plangan ballar jamlanib, 5 ga bo'linadi va yaxlitlanadi. Yaxlitlangan o'rtacha ball imtihonning haqiqiy balli hisoblanadi va sinf jurnaliga qo'yiladi.

1-VARIANT

1. Hisoblang:

$$800118 - 17835 : 145 + 1898 \cdot 97$$

2. Tenglamani yeching:

$$8 \cdot x + 834 = 3410$$

3. Masalani yeching:

Bozorga hammasi bo'lib 3 t 400 kg anor va olma keltirildi. Ular 170 ta qutiga joylashgan. Olma solingan qutilar, anor solingan qutilarga nisbatan 30 taga ko'p. Bozorga necha kilogramm olma keltirilgan?

4. Tomonlarining uzunligi 20 mm va 30 mm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning perimetri va yuzasini hisoblang.

5. Qavslarni shunday qo'yingki, tenglik to'g'ri bo'lsin:

$$255 + 126 - 79 \cdot 9 = 678$$

2-VARIANT

1. Hisoblang:

$$630200 - 123321 : 407 + 2864 \cdot 62$$

2. Tenglamani yeching:

$$x \cdot 28 - 2538 = 2670$$

3. Masalani yeching:

Fermer xo'jaligi ekin maydonidan 700 t bug'doy hosili oldi. Shundan 124 t bug'doy xo'jalik ehtiyojlari uchun qoldirildi. Qoldirilgan bug'doyga nisbatan 203 t ko'p bug'doy sotuvga chiqarildi. Fermerda qancha don qoldi?

4. To'g'ri to'rtburchakning perimetri 120 sm va katta tomonining uzunligi 40 sm ga teng. To'g'ri to'rtburchakning kichik tomonini va yuzasini hisoblang.

5. Qavslarni shunday qo'yingki, tenglik to'g'ri bo'lsin:

$$918 - 714 : 21 + 108 = 776$$

3-VARIANT

1. Hisoblang:

$$26074 + (225829 - 1854) : 85$$

2. Tenglamani yeching:

$$38 \cdot x = 8100 + 830$$

3. Masalani yeching:

Toshkent va Nukus temir yo'l vokzallaridan bir vaqtda bir-biriga qarab ikkita elektr poyezdi yo'lga chiqib, 10 soatdan so'ng uchrashadi. Birinchi poyezdning o'rtacha tezligi 75 km/soat va shaharlar oralig'i 1255 km ga teng. Ikkinchi poyezdning tezligini toping.

4. Ekin maydonining yuzasi 432 m². Maydonning kengligi 24 m. Ekin maydonining uzunligi nimaga teng?

5. Qavslarni shunday qo'yingki, tenglik to'g'ri bo'lsin:

$$942 - 396 : 18 + 809 = 111$$

4-VARIANT

1. Hisoblang:

$$17328 : 16 + (825 \cdot 75 - 8458)$$

2. Tenglamani yeching:

$$x : 521 + 274 = 354$$

3. Masalani yeching:

Toshkent va Jizzax temir yo'l vokzallaridan bir vaqtda bir-biriga qarab ikkita elektr poyezdi yo'lga chiqib 1 soatdan so'ng uchrashadi. Poyezdlardan birining tezligi soatiga 90 km. Agar vokzallar oralig'i 186 km bo'lsa, ikkinchi poyezd qancha yo'l yurgan?

4. Sport maydonchasining yuzasi 816 m². Maydonchaning eni 24 m. Sport maydonchasining uzunligi nimaga teng?

5. Qavslarni shunday qo'yingki, tenglik to'g'ri bo'lsin:

$$144 \cdot 29 - 552 : 24 + 168 = 319$$

5-VARIANT

1. Hisoblang:

$$(13323 - 3425) : 49 + (5142 + 3786) : 62 \cdot 315$$

2. Tenglamani yeching:

$$720 : x + 344 = 348$$

3. Masalani yeching:

Bekatdan bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda ikkita mashina yo'lga chiqdi. Birinchi mashina 50 km/soat, ikkinchisi 65 km/soat tezlik bilan yurdi. 4 soatdan so'ng ular oralig'i necha kilometr bo'ladi?

4. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 150 mm bo'lib, eni esa undan 40 mm qisqa. To'g'ri to'rtburchakning perimetri va yuzini toping. (Tomonlarining uzunligini santimetrlarda ifodalang).

5. Qavslarni shunday qo'yingki, tenglik to'g'ri bo'lsin:

$$144 \cdot 29 + 552 : 24 - 168 = 29$$

6-VARIANT

1. Hisoblang:

$$(14688 : 36) \cdot 1102 - 407 + 4992 : 16$$

2. Tenglamani yeching:

$$3072 + x \cdot 8 = 3304$$

3. Masalani yeching:

Novvoy hammasi bo'lib 240 ta patir va shirmoy nonlar yopti. Ulardan shirmoy nonlar, patir nonlardan 84 taga ko'p. Patir nonlar nechta?

4. Kvadrat shaklidagi shaxmat taxtasining uzunligi 40 sm. Shaxmat taxtasining perimetri va yuzasini hisoblang.

5. Qavslarni shunday qo'yingki, tenglik to'g'ri bo'lsin:

$$2208 : 32 + 37 \cdot 43 - 976 = 684$$

JISMONIY TARBIYA TUSHUNTIRISH XATI

Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganlaridek, sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Shu bois, mamlakatimizda bolalar salomatligini yanada mustahkamlash, ayniqsa, yosh avlodning har tomonlama jismonan barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Bosqichli imtihonini o'tkazishdan asosiy maqsad, DTS va o'quv dasturda berilgan mezon talablari asosida o'quvchilarning jismoniy tayorgarligini tekshirishdir.

Jismoniy tarbiya fanidan IV sinf o'quvchilari bosqichli imtihonning amaliy va nazariy qismini topshiradi. Maktab direktorining buyrug'i bilan imtihonni qabul qilishni tashkillashtirish bo'yicha hay'at a'zolari tayinlanadi. Hay'at a'zolari tarkibi maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi, uning tarkibiga imtihon raisi, jismoniy tarbiya o'qituvchisi (imtihon qabul qiluvchi), assisent (yordamchi)lar kiradi (jami 3 kishi).

Tibbiyot muassasalari tomonidan jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridan ozod etilishi to'g'risidagi ma'lumotnomaga ega bo'lgan o'quvchilar bosqichli imtihonidan ozod etiladilar. O'quvchilar imtihonning amaliy qismini topshirish jarayonida tibbiy xodim bo'lishi lozim.

Imtihon materiallari, maktab sport maydoni (zali) hamda sport anjomlari oldindan talab darajasida tayyorlab qo'yilishi kerak. Bu bo'yicha maktab rahbariyati va jismoniy tarbiya fan o'qituvchilari ma'suldir.

Amaliy qismini topshirish uchun sinf ikki guruhga, o'g'il va qiz bolalarga bo'linadi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi bilet tortadi. Shu tortilgan bilet bo'yicha guruh a'zolarining barchasi amaliy qismni topshiradilar.

Dalolatnoma va bayonnomalar imtihon jarayonida to'ldirib borilishi shart. Bayonnomalarda o'quvchilarning me'yor natijalari aniq yozib borilishi lozim.

1. Bosqichli imtihon dalolatnomasini to'ldirish namunasi.

D A L O L A T N O M A

Tuzildi ushbu dalolatnoma, shu haqdakim. Biz kim dalolatnoma tuzuvchilar:

Bosqichli imtihoni hay'ati raisi _____ (F.I.), imtihon oluvchi o'qituvchi _____ (F.I.), imtihon hay'ati a'zosi (assisent) _____ (F.I.) lar 2012 yil «__» may kuni ___-maktabning 4-«__» sinf bosqichli imtihonidan amaliy mashg'ulot biletleri ochildi. Sinf o'quvchilaridan _____ nafar ishtirok etdi.

Amaliy: O'g'il bolalardan _____ (F.I.) № _____ bilet tortildi
 Qiz bolalardan _____ (F.I.) № _____ bilet tortildi.

Imtihon hay'ati raisi: _____ (F.I.)
 Imtihon oluvchi o'qituvchi: _____ (F.I.) M.O'.
 Imtihon assistent o'qituvchi: _____ (F.I.)

2. Bosqichli imtihon bayyonomasini to'ldirish namunasi.

2012 yil _____ -may № _____ umumiy o'rta ta'lim maktabi
 _____ -sinf (o'g'il, qiz bolalar) Bilet № _____

B A Y Y O N O M A S I

№	O'quvchi-larning F.I.	60 m yugurish		Gimnastika		Basketbol		Turgan joydan uzunlikka sarash		Nazariy		Umumiy ball
		natija	ball	natija	ball	natija	ball	natija	ball	Bilet	ball	
1	Tohirov O'.	10,5	5		4	4	4	140	4	15	4	4
2												
3												

Imtihon hay'ati raisi: _____ (F.I.)
 Imtihon oluvchi o'qituvchi: _____ (F.I.)
 Imtihon assistent o'qituvchi: _____ (F.I.)

M.O'. «___» _____ 2012 yil

Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1	Savol mazmunan to'la ochib berilsa, fikrlari to'liq va aniq bo'lsa	5
2	Javoblar to'g'ri, lekin ikkilanish va taxmin bo'lsa	4
3	Javoblar qisman to'g'ri, tushunchalarni izohlashda bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa	3
4	Javoblar to'g'ri xulosalanmagan, fikrlar va tushunchalarida xatolar ko'p bo'lsa	2
5	Tushunchalar noto'g'ri talqin etilgan, javoblarda xato bo'lsa	1

Amaliy mashg'ulotlarni baholash mezon

№	Baholash mezon	Ball
1	Talab qilingan mashqlarni bajarishda mashq elementlari o'rtasidagi bog'lanish to'g'ri ishonchli bajarilsa	5
2	Talab qilingan mashq erkin, ishonchli elementlarga bog'liq holda bajarilib, 2 tadan ortiq juz'iy xatoga yo'l qo'yilsa	4
3	Mashq qisman bajarilsa, lekin bitta qo'pol xatoga va 1 ta juz'iy xatoga yo'l qo'yilsa	3
4	Mashq bajarishda 3 tadan ortiq va juz'iy qo'pol xatoga yo'l qo'yilsa	2
5	Mashq bajarishda harakat sust bo'lsa, mashq bajarilmasa	1

NAZARIY SAVOLLAR

1. Chiniqish nima va uning turlari haqida aytib bering?
2. O'quvchining shaxsiy gigiyenasi va kun tartibini aytib bering?
3. Futbol o'yini qachon va qayerdan kelib chiqqan?
4. Yengil atletika va uning turlari haqida nimalarni bilasiz?
5. «O'zbekiston iftixorlari» fahriy unvoniga sazovor bo'lgan sportchilardan kimlarni bilasiz?
6. Dars jarayonida shikastlanishning oldini olish va birinchi yordam ko'rsatish.
7. Qomatning buzilishiga nima sabab bo'ladi?
8. Voleybol o'yini qachon va qayerdan kelib chiqqan?
9. Jismoniy mashqlarni bajarishda to'g'ri nafas olishning usullarini aytib bering.
10. Gimnastika va uning turlari haqida aytib bering?
11. Saf deb nimaga aytiladi va saf mashqlariga nimalar kiradi?
12. Akrobatika mashqlari qanday sifatlarni rivojlantiradi?
13. Muvozanat saqlash mashqlari va ularni bajarishda qo'llaniladigan sport anjomlari haqida aytib bering.
14. Sport o'yinlarining turlari haqida aytib bering?
15. Jismoniy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
16. O'quvchilarning shaxsiy gigiyenasi va kun tartibini aytib bering.
17. Yengil atletika va uning turlari haqida nimalarni bilasiz?
18. Qo'l to'pi o'yini qachon va qayerdan kelib chiqqan?
19. «Umid nihollari» sport musobaqalarining tuzilishi va uning ahamiyati.
20. Yuqori startning past startdan farqi nimada?
21. Qo'l to'pi bilan futbol o'yinining farqlari nimada?
22. Kross yugurish qanday sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi?
23. Yurish va yugurishga ta'rif bering.
24. Turgan joydan uzunlikka sakrash qanday bajariladi?
25. Quyoshda chiniqish deganda nimani tushunasiz?
26. O'zbekistonda ommaviy sport turlaridan qaysilarini bilasiz?

27. Gimnastika mashqlarini bajarishda qanday sport anjomlaridan foydalaniladi?
28. Basketbol o'yini qachon va qayerdan kelib chiqgan?
29. Kun tartibi deganda nimani tushunasiz?
30. «Alpomish va Barchinoy» maxsus test sinovlari haqida qanday tushunchaga egasiz?

AMALIY MASHG'ULOTLAR (QIZ BOLALAR)

1-BILET

- 1. Yengil atletika.** Yugurib kelib tennis koptogini uzoqqa uloqtirish.
Me'yor: (metr) 18 – 15 – 13 – 10
- 2. Gimnastika.** Arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash.
Me'yor: (daq/marta) 70 – 60 – 50 – 45.
- 3. Qo'l to'pi.** Qo'l to'pini yerga urib olib yurish texnikasini to'g'ri bajarish.
Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratiladi (metr) 15 – 12 – 10 – 7
- 4. Yengil atletika.** 4x10 ga mokisimon yugurish.
Me'yor: (sek) 11,5 – 12,0 – 12,5 – 13,0

2-BILET

- 1. Yengil atletika.** 60 m. ga yugurish
Me'yor: (sek) 10,8 – 11,3 – 11,8 – 12,3
- 2. Gimnastika.** Oldinga, orqaga ikki martadan umbaloq oshish. «Ko'prik» hosil qilish.
Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.
- 3. Voleybol.** Voleybol to'pini ikki qo'lda devorga uloqtirib, qaytayotgan to'pni ikki qo'llab yuqoridan qaytarish.
Me'yor: (marta) 10 – 8 – 5 – 2
- 4. Yengil atletika.** Yugurib kelib uzunlikka sakrash
Me'yor: (sm) 260 – 230 – 200 – 170.

3-BILET

- 1. Yengil atletika.** Turgan joydan uzunlikka sakrash.
Me'yor: (sm) 140 – 120 – 100 – 80
- 2. Gimnastika.** Gimnastika o'rindig'iga tayangan holda qo'llarni bukib yozish.
Me'yor: (marta) 5 – 4 – 3 – 2.
- 3. Basketbol.** Basketbol to'pini yo'nalishini o'zgartirib 30 m (2 x 15) olib yurish (Ilon izi).
Me'yor: (sek) 11,5 – 12,0 – 12,5 – 13,0.
- 4. Yengil atletika.** 1000 metrga yugurish.
Me'yor: (daq/sek) 6,00 – 6,30 – 7,00 – 7,30

4-BILET

1. Yengil atletika. 4x10 ga mokisimon yugurish.

Me'yor: (sek) 11,5 – 12,0 – 12,5 – 13,0

2. Gimnastika. Gardishni 1 daqiqagacha belda aylantirish.

Me'yor: (marta) 55 – 50 – 40 – 30.

3. Basketbol. Basketbol to'pini jarimadan 8 imkoniyatda halqaga aniq otish.

Me'yor: (aniq tushirilgan to'plar soni) 3 – 2 – 1

4. Yengil atletika. Turgan joydan uzunlikka sakrash.

Me'yor: (sm) 140 – 120 – 100 – 80

5-BILET

1. Yengil atletika. 30 m. ga yugurish.

Me'yor: (sek) 5,5 – 6,0 – 6,8 – 7,5

2. Gimnastika. Yakkacho'p ustida qo'llarni turli holatlarda harakatlantirib va oyoq tagidan qarsak chalib yurish. «Qaldirg'och» hosil qilish.

Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.

3. Voleybol. Voleybol to'pini ikki qo'lda devorga uloqtirib, qaytayotgan to'pni ikki qo'llab yuqoridan qaytarish.

Me'yor: (marta) 10 – 8 – 5 – 2

4. Yengil atletika. Yugurib kelib uzunlikka sakrash.

Me'yor: (sm) 260 – 230 – 200 – 170.

(O'G'IL BOLALAR UCHUN)

1-BILET

1. Yengil atletika. 4x10 ga mokisimon yugurish.

Me'yor: (sek) 11,0 – 11,5 – 12,0 – 12,5

2. Gimnastika. Baland turnikda tortilish.

Me'yor: (marta) 5 – 4 – 3 – 2.

3. Futbol. Futbol to'piga chap va o'ng oyoqlarda zarba berish.

Me'yor: (ikki oyoqda zarba berilgan masofasi – metr) 40 – 35 – 30 – 25.

4. Yengil atletika. Turgan joydan uzunlikka sakrash.

Me'yor: (sm) 160 – 140 – 120 – 100

2-BILET

1. Yengil atletika. 60 m. ga yugurish.

Me'yor: (sek) 10,5 – 11,0 – 11,5 – 12,0.

2. Gimnastika. Arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash.

Me'yor: (marta) 60 – 50 – 40 – 35.

3. Qo'l to'pi. Qo'l to'pini yerga urib olib yurish texnikasini to'g'ri bajarish.

Me'yor: (metr) 25 – 20 – 15 – 10.

4. Yengil atletika. Yugurib kelib uzunlikka sakrash.

Me'yor: (sm) – 300 – 260 – 230 – 200.

3-BILET

1. Yengil atletika: Yugurib kelib tennis koptogini uzoqqa uloqtirish.

Me'yor: (metr) 27 – 25 – 23 – 20.

2. Gimnastika. Polga qo'llar bilan tayangan holda qo'lni bukish va yozish.

Me'yor: (marta) 10 – 8 – 6 – 4.

3. Basketbol. Basketbol to'pini jarimadan 7 imkoniyatda halqaga aniq otish.

Me'yor: (aniq tushirilgan to'plar soni) 3 – 2 – 1

4. Yengil atletika. 60 m. ga yugurish.

Me'yor: (sek) 10,5 – 11,0 – 11,5 – 12,0.

4-BILET

1. Yengil atletika. Yugurib kelib, uzunlikka sakrash.

Me'yor: (sm) – 300 – 260 – 230 – 200.

2. Gimnastika. Oldinga, orqaga ikki martadan umboloq oshish.

Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.

3. Voleybol. Voleybol to'pini ikki qo'lda devorga uloqtirib, qaytayotgan to'pni ikki qo'llab qaytarish.

Me'yor: (marta) 10 – 8 – 5 – 2.

4. Yengil atletika. 4x10 ga mokisimon yugurish.

Me'yor: (sek) 11,0 – 11,5 – 12,0 – 12,5

5-BILET

1. Yengil atletika: Yugurib kelib tennis koptogini uzoqqa uloqtirish.

Me'yor: (metr) 27 – 25 – 23 – 20.

2. Gimnastika. Qo'llar bosh orqasida, chalqancha yotgan holda, 1 daqiqa davomida gavdani ko'tarib o'tirish.

Me'yor: (marta) 15 – 13 – 8 – 5.

3. Futbol. Futbol to'pida jangliyor qilish.

Me'yor: (marta) 7 – 6 – 5 – 3.

4. Yengil atletika. 1000 metrga yugurish.

Me'yor: (daq/sek) 5,30 – 6,00 – 6,30 – 7,00

Nashr. lits. № 154. 14.08.09. Bosishga 21.02.2012-y.da ruxsat etildi.

Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$. Tayms garniturası. Ofset bosma.

1,0 shartli bosma tobog'i. 1,25 nashr tobog'i.
raqamli buyurtma.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida
chop etildi. 100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

Bizning internet manzil: www.iptdgulom.uz

E-mail: iptdgulom@sarkor.uz